

OIV INFEKSIYASI BILAN OG'RIGAN AYOLLARDA HOMILADORLIKNING KECHISHI

Jo'rayeva Karomatxon Najimiddin qizi

Ergasheva Oydina Ergashaliyevna

Turg'unboyeva Shahnoza Mahammadjon qizi

Rishton Jamoat salomatligi texnikumi

Annotasiya:

Homiladorlik davrida OIV - bu homilador bo'lgan ayolda OIV / OITS infeksiyasining mavjudligi. OIVning onadan bolaga yuqishi xavfi uchta asosiy holatda mavjud: homiladorlik, tug'ish va emizish. Bu mavzu muhim ahamiyatga ega, chunki tegishli tibbiy aralashuv bilan virusni yuqtirish xavfi sezilarli darajada kamayishi mumkin va davolashsiz OIV/OITS ona va bolada jiddiy kasallik va o'limga olib kelishi mumkin. Bunga Kasalliklarni nazorat qilish markazlari (CDC) ma'lumotlari misol bo'la oladi: Qo'shma Shtatlar va Puerto-Rikoda 2014—2017-yillar oralig'ida tug'ruqdan oldin parvarish qilish mumkin bo'lgan mamlakatlarda Qo'shma Shtatlar va Puerto-Rikoda 10257 nafar chaqaloq bo'lgan.

Kalit so'zlar: reproduktiv yosh, transplatsenta, vertical yo'l, immunitet, retroviruslar, DNK replikatsiyasi, ARV preparatlar

Hamimizga ma'lumki, OIV-infeksiyasining tarqalganligiga 40 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsada hali hanuz tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bolib qolmoqda. Bu kasallikdan nobud bo'lganlarning soni, kasallanishning jamiyatga keltirgan iqtisodiy zarari bo'yicha mutaxassislar uni «ikkita jahon urushi bilan bir qatarga qo'yish mumkin» deb hisoblaydi. Lekin OIV-infeksiyasi aholi orasiga sezdirmasdan kirib kelishi va tezda qamrab olishi bilan jahon urushlaridan farq qiladi. OIV/OITS tarqalishining XX asr oxirida yuzaga kelgan va insoniyat sog'lig'iga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga rahna solayotgan xavfga O'zbekiston ham yuzma-yuz keldi. Respublikada OIV-infeksiyasi birinchi marotaba 1987 yilda oliy o'quv yurtlarida xorijiy davlatlar Panama, Uganda va Zair davlatlaridan kelib tahsil olayotgan talabalar orasida aniqlangan. O'sha davrda amaldagi qoidalarga muvofiq, Moskva shahri OITS markazida yakuniy tashxis tasdiqlangandan so'ng, OIV aniqlangan bemor o'z vataniga qaytarib yuborilgan. 1989 yildan boshlab mahalliy fuqarolar orasida



ham OIV-infeksiyasi qayd etila boshlagan bo'lib, 1999 yilda OITS bilan kasallangan birinchi bemor vafot etgan.

UNAIDS ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyoda 2023 yilda OIV – infeksiyasi bilan zararlangan ayollarning qariyb 80% reproduktiv yoshdagi ayollardir. OIV bilan kasallangan tug'ish yoshidagi ayollar sonining ko'payishi ularning homiladorlik va tug'ilish sonining ham doimiy ravishda ko'payishiga olib kelishi mumkin. Dunyoda OIV/OITS bilan kasallanish darajasining statistikasi, qoida tariqasida kasallikning haqiqiy tarqalishiga umuman to'g'ri kelmaydi, chunki tadqiqot usullari faqat tibbiy muassasalarda ro'yxatga olingan bemorlar soniga asoslangan. Shu bilan birga, ko'pchilik infeksiya tashuvchilar va bemorlar shifokorga borishni istamasliklari yoki tibbiy murojaatga ehtiyoji bo'lmaganligi sababli kasallikni yuqtirib olganligiga shubha qilishmaydi. Reproktiv yoshdagi aholi qismining salomatligi ko'p jihatdan demografik rivojlanish dinamikasini belilab beradi. Shuning uchun reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish davlat demografik siyosatini rivojlantirishning yangi yo'nalishidir.

Homilador ayollar orasida so'nggi yillarda OIV-infeksiyasining tarqalishiga sabab bo'layotgan asosiy ijtimoiy omillarga ishsizlik oqibatida fuqarolarning chet davlatlariga ishlash uchun O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishi, xususan xotin qizlarning migratsiyaga tortilgan qismi orasida ijtimoiy muammolar nafaqat mehnat faoliyati, balki oilaviy hayotida ayniqsa nikoh munosabatlariga asoslangan jamiyatda bunday muammodan aziyat chekayotgan xotin qizlarning soni oshib bormoqda. Bunday xotin-qizlar iqtisodiy jihatdan ko'proq erkaklarga qaram bo'lib, ko'pincha zo'ravonlikka duchor bo'lishadi, himoyalangan jinsiy aloqada bo'lish ehtimoli ko'proq, bir nechta sheriklarning bo'lishi va moddiy yordam, giyohvandlik, oziq-ovqat yoki uy-joy uchun jinsiy aloqaga murojaat qilishadi.

OIV-infeksiyasining tarqalishida tibbiy muammolarga homiladorlik paytida OIV yuqishiga onaning qonidagi virus yuklamasining yuqori darajasi bo'lishi, homilador ayolning ijtimoiy va xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar, (psixotropfaol moddalar, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, homiladorlik paytida kuzatuvning etishmasligi), siydik chiqarish va jinsiy a'zolaridagi infeksiyalar, yo'ldoshning patologiyasi (xorioamnionit) ham sabab bo'ladi. Onadan bolaga OIV yuqishining yuqori ehtimollik darajasi tug'ruq paytida homila tug'ilish kanalidan o'tib, infeksiyalangan ona qoni va jinsiy a'zolar shilliq qavati bilan aloqa qilganda sodir bo'ladi. Onaning qonida va



bachadon-vaginal sekretiya OIV RNKning aniqlangan darajasi, uzoq suvsiz interval (4 soatdan ortiq), tugʻruq paytida invaziv tibbiy aralashuvlar (epiziotomiya, amniotomiya), yoʻldoshning ajralishi, yumshoq tugʻilish kanalining shikastlanishi va yorilishi tugʻruq paytida infeksiya xavfini oshirishi mumkin.

Maʼlumki, OIV infeksiyali bemorlar umri davomida davlat tomonidan taʼminlanishi belgilangan retrovirusga qarshi dori preparatlarini bepul qabul qiladi va oʻz navbatida bunday dori vositalarini qabul qiluvchilar soni ham ortib bormoqda. Bemordan uning sogʻlom jinsiy sherigiga kasallik yuqib qolmasligi va profilaktika uchun sogʻlom jinsiy sherik ham maxsus sxema asosida retrovirusga qarshi dori vositalarini qabul qiladi. Bunday juftliklarga serodiskordant juftliklar deyiladi. Serodiskordant juftlik bu sheriklaridan biri OIV bilan zararlangan va uzoq vaqt davomida jinsiy munosabatlarni davom ettiruvchi juftlikdir. Serodiskordant atamasi lotincha soʻzdan olingan boʻlib, sero-qon; differant-mos boʻlmagan degan maʼnolarni anglatadi. Diskordant soʻzi lotincha (discordans, discordantis) soʻzdan olingan boʻlib, «nomuvofiq», «oʻxshash boʻlmagan», «boshqacha» degan maʼnoni anglatadi. Bizning «Homilador ayollar orasida OIV-infeksiyasi tarqalishining epidemiologik tavsifi va profilaktikasini takomillashtirish yoʻllari» mavzusidagi tibbiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun olib borgan tadqiqotimizda aynan mana shu guruhdagi sogʻlom jinsiy sheriklari hisoblangan ayollar kasallikni jinsiy yoʻl orqali yuqtirib olish xavfi yuqori ekanligini ilmiy asoslab berildi.

Mamlakatimizda homilador ayollar orasida OIV-infeksiyasini tarqalishi, demografik va ijtimoiy xususiyatlari, epidemik jarayon rivojlanishiga taʼsir qiluvchi xavf omillari hamda ularning jinsiy sheriklari oʻrtasida OIV-infeksiyasining tarqalishining oldini olishga yoʻnaltirilgan profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirishga oid tadqiqotlar hali oʻtkazilmagan. Shuni ham yodda tutish kerakki, yuqoridagilar bilan bogʻliq holda bunday tadqiqot ishlari jahon adabiyotlarida ham yetarli emasligi ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. <https://tma.uz>
3. <https://www.sammu.uz>

